

METAKOGNITIV YONDASHUVNING KREATIV FIKRLASH JARAYONLARINI BOSHQARISHDAGI PEDAGOGIK ASOSLARI

Nurmatov Sardor Sidikovich

Qo'qon universiteti Raqamli texnologiya va matematika kafedrasida katta o'qituvchisi

sardornurmatov900@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929194>

Annotatsiya. Mazkur maqolada metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi ta'lim jarayonida talabalarning tayyor bilimlarni o'zlashtirishi bilan bir qatorda, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topish, o'z fikrlash strategiyasini ongli boshqarish kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Metakognitiv yondashuv shaxsning “o'z tafakkuri haqida tafakkur yuritishi”, ya'ni bilish jarayonlarini rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va baholash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Kreativ fikrlash esa muammoni turli nuqtai nazardan ko'rish, original, moslashuvchan va samarali g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Flavell, Brown, Schraw, Guilford, Torrance, Sternberg, Amabile kabi olimlarning qarashlari asosida metakognitsiya va kreativ fikrlash o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik modellash tirish usullaridan foydalanildi. Natijada kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholashdan iborat pedagogik modeli asoslab berildi.

Kalit so'zlar: metakognitiv yondashuv, kreativ fikrlash, pedagogik boshqaruv, refleksiya, metakognitiv monitoring, kreativ kompetensiya, ta'lim jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida bilim berish jarayoni faqat tayyor axborotni uzatish bilan chegaralanib qolmay, balki o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, nostandart qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi uning nafaqat bilim darajasi, balki mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, muammoga turli tomondan yondasha olishi va o'z fikrlash jarayonini boshqara olishi bilan belgilanadi.

Kreativ fikrlash insonning yangilik yaratishga qaratilgan intellektual faoliyati bo'lib, u muammoni ko'ra bilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish, ilgari mavjud bo'lmagan g'oyalarni taklif etish va ularni amaliy jihatdan asoslay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. J.P. Guilford kreativlikni tafakkurning divergent shakli bilan bog'lab, uni bir muammoga bir nechta yechim topish imkoniyati sifatida talqin qilgan [4]. E.P. Torrance esa kreativ fikrlashni ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik mezonlari asosida baholash mumkinligini ko'rsatgan [5].

Biroq kreativ fikrlash o'z-o'zidan, tartibsiz va tasodifiy yuzaga keladigan jarayon emas. U ma'lum darajada boshqarilishi, yo'naltirilishi va rivojlantirilishi mumkin bo'lgan murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Aynan shu nuqtada metakognitiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. J.H. Flavell metakognitsiyani insonning o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ularni nazorat qilish qobiliyati sifatida izohlaydi [1]. Boshqacha aytganda, metakognitiv yondashuv talabaning “men qanday fikrlayapman?”, “qaysi strategiya samarali?”, “muammoni yechishda qanday xatoga yo'l qo'ydim?”, “natijani qanday yaxshilash mumkin?” kabi savollar orqali o'z tafakkurini boshqarishiga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash va metakognitiv boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, ijodiy g'oya faqat xayoliy tasavvur mahsuli emas, balki rejalashtirilgan, kuzatilgan, baholangan va takomillashtirilgan bilish faoliyatining natijasidir. Talaba kreativ vazifani bajarishda avvalo muammoni tushunadi, maqsadni belgilaydi, turli strategiyalarni tanlaydi, o'z fikrlash jarayonini kuzatadi, xatolarni aniqlaydi va yechimni qayta ishlab chiqadi. Bu bosqichlarning barchasi metakognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liq.

Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi — metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslarini aniqlash, uning nazariy tushunchalarini izohlash hamda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik modelini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning ikkinchi yarmida J.H. Flavell tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, metakognitsiya shaxsning o'z bilish jarayonlari, bilimlari va strategiyalari haqida xabardor bo'lishi hamda ularni boshqarish qobiliyatidir [1]. A.L. Brown metakognitsiyani o'quv faoliyatida rejalashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonlari bilan bog'lab, uni o'z-o'zini boshqaruvchi ta'limning muhim omili sifatida talqin qiladi [2].

G. Schraw va D. Moshman metakognitsiyani ikki asosiy tarkibga ajratadi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat. Metakognitiv bilim shaxsning o'z bilish imkoniyatlari, vazifa xususiyatlari va strategiyalar haqidagi bilimlarini o'z ichiga olsa, metakognitiv nazorat rejalashtirish, monitoring va baholash kabi faoliyatlarni qamrab oladi [3]. Ushbu yondashuv kreativ fikrlashni boshqarishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida talaba o'z imkoniyatlarini, topshiriqning murakkabligini va mos strategiyalarni anglay olishi zarur.

Kreativ fikrlash bo'yicha tadqiqotlarda J.P. Guilford divergent tafakkur nazariyasini ilgari surgan. Unga ko'ra, kreativlik birgina to'g'ri javobni topish emas, balki ko'plab original, moslashuvchan va samarali javoblarni ishlab chiqish qobiliyatidir [4]. E.P. Torrance esa kreativ fikrlashni baholashda ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va elaboratsiya mezonlarini ishlab chiqqan [5].

R. Sternberg va T. Lubart kreativlikni intellektual qobiliyat, bilim, tafakkur uslubi, motivatsiya, shaxsiy sifatlar va muhitning o'zaro ta'siri natijasi sifatida izohlaydi [6]. T.M. Amabile esa kreativlikka ichki motivatsiya, sohaga oid bilim va kreativ ko'nikmalar birligi sifatida yondashadi [7]. Bu qarashlar metakognitiv yondashuv bilan bevosita bog'liq, chunki talabaning o'z motivatsiyasini anglash, strategiyasini tanlash va natijasini baholashi kreativ faoliyat samaradorligini oshiradi.

Demak, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishda faqat yordamchi vosita emas, balki kreativ jarayonni ongli tashkil etish va boshqarishning muhim pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Metodologiya. Maqola nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, unda metakognitiv yondashuv va kreativ fikrlashga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, nazariy tahlil metodi orqali metakognitsiya, kreativ fikrlash, refleksiya, metakognitiv monitoring, o'z-o'zini baholash kabi tushunchalarning mazmuni aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, taqqoslash metodi asosida metakognitiv yondashuv va an'anaviy pedagogik yondashuv o'rtasidagi farqlar ko'rsatildi. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi va nazorat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'lsa, metakognitiv yondashuvda talaba o'z o'quv faoliyatini rejalashtiruvchi, kuzatuvchi va baholovchi faol subyektga aylanadi.

Uchinchidan, umumlashtirish metodi yordamida kreativ fikrlashni boshqarishda metakognitiv strategiyalarning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

To'rtinchidan, pedagogik modellashirish metodi asosida kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni, predmeti sifatida esa mazkur jarayonni metakognitiv yondashuv asosida pedagogik boshqarish mexanizmlari belgilandi.

Natijalar. Tahlillar asosida metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslari quyidagi tarkibiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi.

1. Kreativ fikrlashni rejalashtirish

Metakognitiv yondashuvning birinchi muhim vazifasi — talabaning ijodiy faoliyatni boshlashdan avval maqsadni anglashiga yordam berishdir. Kreativ topshiriq bajarilishidan oldin talaba quyidagi savollarga javob topishi lozim: muammo nimadan iborat, uni hal qilish uchun qanday bilimlar zarur, qanday yechim variantlari bo'lishi mumkin, qaysi strategiya samaraliroq?

Bu bosqichda o'qituvchi tayyor javobni bermaydi, balki yo'naltiruvchi savollar orqali talabaning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Masalan, “Bu masalani boshqa usulda hal qilish mumkinmi?”, “Yechimni hayotiy vaziyat bilan bog'lash mumkinmi?”, “Qanday g'oya odatiy javoblardan farq qiladi?” kabi savollar kreativ tafakkurni faollashtiradi.

2. Metakognitiv monitoring

Kreativ fikrlash jarayonida monitoring talabaning o'z fikrlash faoliyatini kuzatishi, tanlangan strategiyaning samaradorligini tekshirishi va zarur holatda yo'nalishni o'zgartirishi bilan bog'liq. Bu jarayonda talaba “men to'g'ri yo'ldan boryapmanmi?”, “fikrim yetarlicha asoslimi?”, “boshqa muqobil g'oya bormi?” kabi savollar orqali o'z faoliyatini nazorat qiladi.

Metakognitiv monitoring kreativ fikrlashda yuzaga keladigan shoshma-shosharlik, birinchi topilgan javob bilan cheklanish, stereotip yondashuvga berilish kabi holatlarning oldini oladi. Natijada talaba g'oyalarni chuqurroq tahlil qiladi, ularni solishtiradi va eng maqbulini tanlashga harakat qiladi.

3. Refleksiya

Refleksiya kreativ fikrlashning sifatini oshiruvchi muhim pedagogik mexanizmdir. Refleksiya orqali talaba bajarilgan ishga qayta nazar tashlaydi, o'z fikrlash jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi.

Bu jarayon “nima uchun aynan shu yechimni tanladim?”, “qanday xatoga yo‘l qo‘ydim?”, “keyingi safar qanday strategiyadan foydalanaman?” kabi savollar orqali amalga oshiriladi.

Refleksiya kreativ fikrlashni tasodifiy faoliyatdan ongli boshqariladigan faoliyatga aylantiradi. Ayniqsa, muammoli ta‘lim, loyiha ishlari, keys-stadi, munozara, aqliy hujum, konseptual xarita va ijodiy topshiriqlarda refleksiv tahlil muhim natija beradi.

4. O‘z-o‘zini baholash

Metakognitiv yondashuvda talaba faqat o‘qituvchi tomonidan baholanadigan obyekt emas, balki o‘z faoliyatini baholovchi subyekt sifatida shakllanadi. O‘z-o‘zini baholash kreativ fikrlashning mezonlarini anglashga yordam beradi. Bunda talaba o‘z g‘oyasini originallik, moslashuvchanlik, amaliy ahamiyat, mantiqiy asoslanganlik va yangilik darajasi bo‘yicha baholaydi.

Quyidagi jadvalda kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarish bosqichlari umumlashtiriladi.

Bosqich	Metakognitiv faoliyat	Kreativ fikrlashdagi vazifasi	Pedagogik vositalar
Rejalashtirish	Maqsadni aniqlash, strategiya tanlash	Muammoni anglash va yechim yo‘nalishini belgilash	Muammoli savollar, aqliy hujum, klaster
Monitoring	Fikrlash jarayonini kuzatish	G‘oyalarni tekshirish va muqobil variantlarni izlash	Yo‘naltiruvchi savollar, kuzatuv varaqasi
Refleksiya	Natijaga qayta nazar tashlash	Xatolarni anglash va tajribani umumlashtirish	Refleksiv esse, “Men nimani o‘rgandim?” metodi
Baholash	O‘z natijasini mezonlar asosida baholash	G‘oyaning yangiligi va samaradorligini aniqlash	Rubrika, o‘z-o‘zini baholash jadvali

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlash jarayonlarini pedagogik jihatdan boshqarishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

birinchidan, talabani o‘z fikrlash jarayoniga ongli munosabatini shakllantiradi;

ikkinchidan, ijodiy topshiriqlarni bajarishda maqsad, strategiya va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi;

uchinchidan, talabani mustaqil qaror qabul qilish va muqobil yechimlarni izlash qobiliyatini rivojlantiradi;

to‘rtinchidan, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash orqali kreativ faoliyat sifatini oshiradi.

Muhokama

Metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy afzalligi shundaki, u talabani passiv bilim oluvchi emas, balki o‘z bilish faoliyatini boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. An’anaviy ta‘limda ko‘pincha natija birlamchi ahamiyat kasb etadi: talaba topshiriqni to‘g‘ri bajardimi yoki yo‘qmi, degan savol asosiy mezonga aylanadi. Metakognitiv yondashuvda esa jarayonning o‘zi ham muhim hisoblanadi. Ya’ni talaba qanday fikrladi, qanday strategiya tanladi, qanday xulosaga keldi, xatosini qanday tuzatdi — bularning barchasi pedagogik ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlashni boshqarishda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi tayyor yechimni beruvchi emas, balki fikrlash jarayonini tashkil etuvchi, muammoli vaziyat yaratib beruvchi, savollar orqali talabani izlanishga undovchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ta‘lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatini kuchaytiradi.

Metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashning quyidagi mezonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi:

Ravonlik — talabani ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyati. Metakognitiv rejalashtirish bu jarayonda fikrlarni tartibga solishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik — bir vaziyatga turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyati. Monitoring va refleksiya orqali talaba bir xil fikrlash qolipidan chiqishga o‘rganadi.

Originallik — noodatiy, yangi va o‘ziga xos yechimlar ishlab chiqish qobiliyati. Metakognitiv savollar talabani tayyor javob bilan cheklanib qolmasdan, yangi variantlarni izlashiga yordam beradi.

Elaboratsiya — g‘oyani asoslash, rivojlantirish va amaliy shaklga keltirish qobiliyati. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya ushbu mezonni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, metakognitiv yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim pedagogik shartlarga amal qilish zarur. Avvalo, ta‘lim jarayonida xato qilishdan qo‘rqmaydigan ijodiy muhit yaratilishi lozim. Chunki

kreativ fikrlash erkin izlanish, taxmin qilish, sinab ko‘rish va qayta ishlash orqali rivojlanadi. Ikkinchidan, o‘qituvchi talabalarni faqat yakuniy natija bo‘yicha emas, balki fikrlash jarayoni, strategiya tanlash va refleksiya sifati bo‘yicha ham baholashi kerak. Uchinchidan, kreativ topshiriqlar ochiq, muammoli va bir nechta yechimga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Demak, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashni shakllantirishda nazariy tushuncha emas, balki aniq pedagogik texnologiya sifatida qaralishi lozim. U talabani ijodiy tafakkurini faollashtirish, mustaqil izlanishga yo‘naltirish va o‘z faoliyatini ongli boshqarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Metakognitiv yondashuv kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishning muhim pedagogik asosi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash samaradorligi faqat talabani tabiiy qobiliyati yoki tasavvur kuchiga bog‘liq emas. U maqsadni anglash, strategiya tanlash, fikrlash jarayonini kuzatish, natijani baholash va tajribani qayta tahlil qilish kabi metakognitiv faoliyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Maqolada kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholashdan iborat modeli asoslab berildi. Ushbu model ta‘lim jarayonida talabalarining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarda muqobil yechim topishi va o‘z fikrlash jarayonini ongli boshqarishini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv yondashuvning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: u talabani o‘z tafakkurini anglashiga yordam beradi; kreativ topshiriqlarni ongli bajarishga yo‘naltiradi; refleksiv fikrlashni rivojlantiradi; o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini tuzatish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli oliy ta‘limda kreativ fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvdan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 1979, 34(10), 906–911.
2. Brown, A. L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. In: F. E. Weinert, R. H. Kluwe (Eds.), *Metacognition, Motivation, and Understanding*. Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1987.
3. Schraw, G., Moshman, D. Metacognitive theories. *Educational Psychology Review*, 1995, 7(4), 351–371.
4. Guilford, J. P. Creativity. *American Psychologist*, 1950, 5(9), 444–454.
5. Torrance, E. P. *Torrance Tests of Creative Thinking*. Lexington, MA: Personnel Press, 1974.
6. Sternberg, R. J., Lubart, T. I. The concept of creativity: Prospects and paradigms. In: R. J. Sternberg (Ed.), *Handbook of Creativity*. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
7. Amabile, T. M. *Creativity in Context*. Boulder, CO: Westview Press, 1996.
8. Zimmerman, B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 2002, 41(2), 64–70.
9. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Polya, G. *How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method*. Princeton: Princeton University Press, 1957.
11. Hargrove, R. A., Nietfeld, J. L. The impact of metacognitive instruction on creative problem solving. *Journal of Experimental Education*, 2015, 83(3), 291–318.
12. Runco, M. A., Acar, S. Divergent thinking as an indicator of creative potential. *Creativity Research Journal*, 2012, 24(1), 66–75.
13. Cropley, A. J. *Creativity in Education and Learning: A Guide for Teachers and Educators*. London: Routledge, 2001.
14. Pintrich, P. R. The role of metacognitive knowledge in learning, teaching, and assessing. *Theory Into Practice*, 2002, 41(4), 219–225.
15. Fisher, R. *Teaching Children to Think*. Cheltenham